



**“BOLALAR XIRURGIYASI” YO’NALISHI BO’YICHA  
DUNYODA “PEDIATLAR OTASI” NOMINI OLGAN ЛЕОНИД РОШАЛЬ  
NING TIBBIYOTDAGI O’RNI.**

**Maxmudova Asal Djamshedovna**  
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti  
Davolash fakulteti 227-guruh talabasi  
E-mail: asalyamakhmudova21@gmail.com  
Tel: +998994288103

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ЛЕОНИД РОШАЛЬ ning hayoti va uning qilgan ishlari, tibbiyotdagi yangiliklari hamda uning mukofotlari, umimiy Jarrohlikka ta’rif, bolalar kassaliklari, bemorlarning operatsiyagacha va operatsiyadan keying parvarishlari, Respublikamizdagi Pediatriya haqida batafsil ma’lumotlar beriladi.

**Kalit so’zlar:** Tibbiyot, Bolalar blan ishlash, Xirurgiya, Bolalar xirurgiyasi, Pediatriya, Леонид Рошаль ning hayoti, Xirurgik bolalar parvarishi, Xirurgik bolalarni operatsiyaga tayyorlash jarayonlari.

Jarrohlik yoki Xirurgiya (yun. cheir – qo’l va ergon – harakat, ish), jarrohlik – tibbiyotning bir sohasi. Xirurgik operatsiyalarni talab etadigan kasalliklarni o’rganadi hamda operatsiya qilish usullarini ishlab chiqadi. Qadimdan odamlar o’z o’ziga yoki bir-birlariga yordam berib, jarohatdan oqayotgan qonni to’xtatish uchun jarohatni bosib turish, yaralarga kul sepish kabi oddiy usullardan foydalanganlar. Qadimgi qazilmalarda bosh suyak chanog’i trepanatsiyasi, oyoq amputatsiyasidan keyingi izlar topilgan. Xirurgiya dastlab fan va madaniyati rivojlangan davlatlar (Misr, Hindiston, Yunoniston, Xitoy, Vizantiya) da shakllangan. Mil. av. ham kasalliklarni davolashda qon chiqarish, qovuqsan toshlarni tushirish operatsiyalari o’tkazilganligi qayd etilgan. Gippokrat (mil. av. 460—377 yillar) jarohatlarni birlamchi va ikkilamchi bitishini kuzatgan, turli bog’lovlarni qo’yish texnikasini ishlab chiqqan, operatsiyani o’tkazishda tozalikka rioya qilish maqsadida qaynatilgan yomg’ir suvidan foydalangan. U ishlab chiqqan plevra bo’shlig’ini drenajlashda qo’llaniladigan qovurg’a rezeksiyasi operatsiyasi hozir ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Qadimgi Rimda Sels (Antillus) ba’zi a’zolar anatomiyasini, yallig’lanishning belgilarini va operatsiya vaqtida qon to’xtatish uchun tomirlarni bog’lash, oqma yaralarni davolash usullarini, Galen esa jarohatlarni tikishda ipaqdan foydalanishni, jarroxlik operatsiyalarini o’tkazishda a’zolarining anatomiyasi va funksiyasini hisobga olish zarurligini taklif etgan. Abu Ali ibn Sino (980—1037) „Tib qonunlari“ asarida xirurgik kasalliklarni davolashda qo’llangan usullarni bayon etgan; u operatsiya vaqtida narkoz sifatida bemorga opiy, mandragor ishlatgan, shuningdek, buyrakdan tosh olish, o’smalarni aniqlash va o’smani sog’lom to’qimagacha olib tashlash va boshqa operatsiyalar texnikasini yaxshi bilgan.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

okioXirurgiyaning yo'nalish: Umumiy xirurgiya, Bolalar xirurgiyasi, Neyro-xirurgiya, Kardio-Xirurgiya kabilar hisoblanadi.

Bulardan ushbu maqolada to'xtalib o'tayotganimiz bu bolalar xirurgiyasi yoki bolalar jarrohligi hamda pediatriya hisoblanadi.

Pediatriya (yunoncha pais – go'dak va iatreia – davolash) – bola organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlari, bolalar kasalliklarining kelib chiqish sabablari va ularning rivojlanish mexanizmlarini o'rganadi; kasalliklarni aniqlash, davolash va ularning oldini olish usullarini ishlab chiqadi.

Respublikamiz iqlim sharoitida bolalar siydik yo'lining fiziologiyasi va patologiyasi (K. X. Tohirov, L. S. Aleksandrova, A. S. Saydaliyev, A. S. Sulaymonov), bolalar sili (M. 3. Lyu-betskaya, A. A. Saidaxmedov, V. A. Elkonina), qon kasalliklari o'rganildi (A. T. To'rayev, N. N. Chukanin, 3. N. Bekna-zarova). Ona qornidaligida gipotrofiyaga uchragan bolalarda ularning yoshiga va ovqatlanish turiga qarab aminokislotalar almashinuvi masalasi, nefritda bolalar immun reaktivligi ko'rsatkichlari, o'tkir va surunkali virusli hepatitlarning oldini olish, ularga tashxis qo'yish va davolash masalalari (H. A. Yunusova, O. S. Maxmudov, N. S. Loginova, K. M. Mirzayev, T. O. Daminov), o't pufagi va o't yo'llari kasalliklari, revmatik kasalliklar, yosh bolalarda elektroensefalik xususiyatlar o'rganildi (M. A. Mirzamuhamedov, I. A. Bodnya, S. N. Yo'ldosheva, M. R. Nuritdinov, A. T. Oqilov, S. Abdurahmonova va boshqalar). Bolalardagi zotiljam, allergik va immunologik kasalliklar, shuningdek, pediatriya fani va amaliyotining eng dolzarb muammosi – sog'lom avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish ustida keng ko'lamda ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bola sog'liq holatining mamla-katimizga xos bo'lgan me'yor ko'rsatkichlari, bola organizmining immun holati, sog'lom va bemor bola ovqatlanishi masalasi hamda buni yaxshilash yo'lyo'riqlari, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish va boshqa muammolarni har tomonlama o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Xirurgik bolalar Turli kasalliklarda bemorni parvarish qilishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Shu bilan birga barcha bemorlarga tegishli umumiy parvarish qoidalari mavjud. Bemorning ma'lum bir tartibga amal qilishi, to'g'ri ovqatlanishi, shifokor buyurganlarini to'la-to'kis bajo keltirishi, bemor ahvolini uzluksiz kuzatib borish, shuningdek kasallik tufayli zaiflashib qolgan organizmni boshqa kasalliklardan himoya qilish ham bemorni parvarish qilishga kiradi.

Bemorni parvarish qilish tadbirlari bemorning umumiy ahvoliga qarab belgilanadi. Shifokor lozim bo'lgan tartib (rejim)ni tavsiya etadi, ya'ni qimirlamay yotish tartibi (o'rinda harakat qilinmaydi), yotish tartibi (o'rinda turmasdan harakat qilish mumkin), yotib turish tartibi (xona ichida harakat qilish mumkin), umumiy tartib (faol harakat qilishga ruxsat beriladi). Bemor o'ziga o'zi qaray olsa ham, yaqinlari uni qulay sharoit bilan ta'minlashi, ruhiy holatini buzmasligi va shifokor ko'rsatmalarini amal qilishini nazorat qilishlari zarur.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Operatsiya (tibbiyotda) — to‘qima va a‘zolari dagi kasallik jarayoniga xirurgning aralashuvi. Bunda operatsion jarohat vujudga keltiriladi (qonli operatsiya), ba‘zan maxsus mexanik usullar tatbiq etiladi (qonsiz Operatsiya, chiqqan suyakni solish, singan suyak bo‘laklarini birbiriga to‘g‘rilab qo‘yish). Ko‘pincha davolash, ba‘zan esa diagnostika maqsadida (biopsiya, punksiya, laparotomiya) qilinadi.

Leonid Mixaylovich Roshal (1933-yil 27-aprelda Livniy shahrida tug‘ilgan) — Moskva shahridagi taniqli pediater, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti eksperti, falokatlar va urushlardagi bolalarga yordam berish xalqaro xayriya jamg‘armasi raisi.

Roshal Sovet Ittifoqi, RSFSR, Oryol viloyati, Livniy qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning onasi Emma hozirgi Ukraina hududidagi yahudiy oilasidan chiqqan. Uning otasi Mixail qiruvchi samolyot uchuvchisi edi.

Roshal 1981-yildan beri Moskva pediatriya ilmiy tadqiqot institutining Shoshilinch jarrohlik va bolalar travmasi bo‘limiga rahbarlik qiladi. 2003-yilda u Moskva shoshilinch bolalar jarrohligi va travmatologiya instituti rahbarligini ham qabul qildi. Bu yerda hozirda yiliga 60 ming bola davolanmoqda.

Doktor Roshal 2002-yilda Moskva teatri dagi garovga olish inqirozi paytida chechen terrorchilari bilan muzokara olib bordi. U, shuningdek, 2004-yilgi Beslan maktabida garovga olish holatida muzokarachi sifatida ishlagan. Bolalarni ozod qilish uchun ishlagan va garovga olinganlarni oziq-ovqat va suv bilan ta‘minlashga ishontirishga harakat qilgan. Beslan inqirozidagi voqealar sodir bo‘lgandan so‘ng u yuzlab bolalarning kuyish jarohatlarini davolashi kerak bo‘lgan tibbiy guruhlar maslahatchisi bo‘lib ishlagan.

2018-yilda - 2017-yil uchun Ahmadiya musulmonlari tinchlik mukofoti bilan taqdirlangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashev.U.Y, 2021 yil, Toshkent, Darslik, Xirurgik kasalliklar.
2. D.Oxunov, Darslik, Umumiy xirurgiya. 2009 yil
3. M.M.Aliyev. 2016 yil. Toshkent. Darslik 2 tomli, Bolalar Xirurgiyasi.
4. Книга , Жизнь Леонида Рошаль

